

ISPAN TILINI O'QITISHDA ISPAN XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Tashniyazova Shoira Xolmuradovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. Bu maqolada ispan va o'zbek maqollari va tez aytishlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bunda biz o'zbek xalq maqollari qanchalik ispan xalq maqollariga o'xshash hamda farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Chunki maqol bu xalq og'zaki ijodi hisoblanib, u tilning qanchalik boy ekanligini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi, shuningdek tez aytish ham shuning jumlasidandir.

Kalit so'zlar: maqol, tez aytish, ma'no farqlash, komponetlar.

Аннотация. В этой статье представлена информация об испанских и узбекских пословицах и поговорках. В этой статье мы можем увидеть, как узбекские народные пословицы похожи и отличаются от испанских народных пословиц. Поскольку пословицы считаются формой народного искусства, они являются показателем богатства языка, и быстрое их произнесение также является одним из таких факторов.

Ключевые слова: пословица, скороговорка, смысловая дифференциация, компоненты.

Abstract: This article provides information about Spanish and Uzbek proverbs and sayings. In this article, we can see how Uzbek folk proverbs are similar and different from Spanish folk proverbs. Since proverbs are considered a form of folk art, they are an indicator of the richness of the language, and their rapid pronunciation is also one of such factors.

Keywords: proverb, tongue twister, semantic differentiation, components.

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, ispan tili dunyoda eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biri sifatida o'z o'rniga ega. Ispan tilini samarali o'rganish uchun nafaqat grammatik qoidalarni, balki bu tilni so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va xalq og'zaki ijodini ham o'rganish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ispan xalq maqollaridan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati va uslublari yoritiladi.

O'zbek xalqi qadimdan boy ma'naviy xazinaga ega ekanligi hech kimga sir emas. Ispan xalqi ham buyuk epik va lirik og'izaki ijodiyot sohibidir. Bu ijodiyot tarkibiga kirgan o'zida kuchli mohiyat va milliy tiynatni mujassam etgan maqol va matallarni, topishmoqlarni, eposlarni, ezgu va yovuz g'oyalari bilan hamohang boy syujetli ertak va afsonalarni, qo'shiqlarni asrlar osha ispan xalqi og'zaki ijro etib kelgan. Xalq va millatning bu buyuk yaratuvchanligi mahsuli ichida maqol, matal,

topishmoqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular shaklan ixcham, mazmunan yuksak, badiiy pishiq janrlardan hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, maqollar til madaniyati sifatida bir xalqning butun madaniyatini o‘z ichiga mujassam qilgan holda meros bo‘lib qoladi. Shu millat, xalq, elning hayoti, turmush tarzini qanday bo‘lsa shundayligicha o‘ziga qamrab, singdirib olibdi. Shu bois ham unda o‘sha xalqning butun borlig‘ini, qiyofasini ko‘rish imkoni mavjud. Bunday sifatlar ispan tilida ham, uning milliyligi ufurib turgan folklorida ham keng ko‘lamlidir. Shu va yana boshqa sababla tufayli ham ispan tilini o‘rganadigan chet elliklar kundan kunga ko‘paymoqda.

Ispan tilida “maqol” tushunchasi *proverbio* - so‘zi bilan beriladi. O‘zbek tiliga bu so‘z arab tilidan kirib kelgan. Bu so‘z arabcha “qavvola” so‘zidan olingan va “aytmoq, so‘zlamoq” ma’nolarini anglatadi. Binobarin, “maqol” so‘zi o‘zbek tilida ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchidan o‘z lug‘aviy ma’nosiga muvofiq - “so‘z, nutq”ni ma’nosida, ikkinchidan, termin sifatida xalq og‘zaki ijodidagi keng qo‘llanadigan janrlardan birini anglatadi.

Maqol xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biridir. Unda fikr qisqa, lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugallikka asoslangan, chuqur mazmun jamlanadi. Mavzusi tomonidan rang-barang va xilma xildir. Maqollarda vatan, mehnat, ilm, hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, xushyorlik, til va nutq madaniyati kabi mavzularga oid, shu bilan birga salbiy xislatlar bilan bog‘liq masalalar yechimi o‘rin olgan bo‘ladi.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalq orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashqarisida” kabilar.

Bunday purhikmat maqollar ispan xalqining durdonalari sifatida ispan maqollarida ham aks etgan. Masalan,

1. Si noquieres que se sepa no lo hogas.

Bu maqolda berilayotgan fikr o‘zbek tiliga tarjima qilinganida “Siringni oshkor bo‘lishini istamasang, o‘zgaga aytma” degan ma’noni beradi.

2. No tengas miedo de los cambios lentos.

Bu maqolda berilayotgan fikr o‘zbek tiliga tarjima qilinganida “Sekin o‘rganishdan qo‘rqma” degan ma’noni beradi.

Bu maqollarda berilgan fikrlarni ifoda qiluvchi ekvivalent sifatida o‘zbek xalq maqollarini ham keltirish mumkin. Masalan, birinchi maqol uchun quyidagilar:

1. Avval o‘yla, keyin so‘yla. (O‘zbek xalq maqoli)

2. Tiling bekta tutgin, tishing sinmasin,

O‘tirgan odamlar sendan kulmasin. (“Devonu lug‘otit turk” asaridan)

Ispan tilida berilgan ikkinchi maqol uchun quyidagilar:

1.Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,

Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur. (O‘zbek xalq maqoli)

2.Toma-toma ko‘l bo‘lur,

Tommay qolsa, cho‘l bo‘lur. (O‘zbek xalq maqoli)

3.Ilm misqollab yig‘iladi. (O‘zbek xalq maqoli)

Maqol biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma’noda qo‘llanadi. Biroq XX asrga kelib, uni maqol ma’nosida istifoda etish bilan cheklanildi.

“Naql” so‘zi ham maqol ma’nosida qo‘llansada, arabcha so‘z bo‘lib, “ko‘chirmoq” m’nosini anglatadi. O‘zbek tilida esa “bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq” singari ikkinchi bir ma’noga ega va xalq og‘zaki nasrining mustaqil aforistik janrini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo‘llanadi. “Yaxshi naql-tomiri aql” maqolida “naql” maqol ma’nosidadir.

Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma’lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug‘iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi. Aytaylik, jahondagi barcha xalqlarda ham yashamoqning asosiy sharti-yemoq va kiymoq bo‘lib, buning moddiy negizi ekin ekish va undan mo‘l-ko‘l hosil olgan holda ham moddiy, ham ma’naviy imkoniyatlarini ta’minlashdir. Ekin ekish uchun yerni qay vaqtida shudgor qilish uning unumdorligini oshiradi? Bu savol javobi necha asrlik dehqonchilik tajribasining axloqiy xulosasi sifatida “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” maqolining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Maqolning dastlab qaysi tilda yaratilganligini aniqlash oson emas. Shu sababli turli tillarda mavjud bir xil mazmundagi maqollarni o‘scha xalqlar turmush tarzidagi o‘xhash jihatlarga oid hayotiy tajribalarning mantiqiy-axloqiy yakunlari sifatida qarash asosliroqdir. Lekin masalaning bu qirrasi paremiologiya-maqolshunoslikda deyarli o‘rganilayotgani yo‘q. Har bir xalq maqollarida o‘scha xalqning qalbi. milliy tabiatiga xos qarashlari ifodalansada, ulardagи g‘oya umumxalqqa tegishlidir. Shu xususiyatiga ko‘ra, maqollar ham milliy, ham umuminsoniy mohiyat kasb etgan. Xalq maqollari ko‘p asrlik tadrijiy yo‘lni bosib, avloddan-avlodga, og‘izdan-og‘izga o‘tish jarayonida yanada silliqlanib, zamon ruhiga yo‘g‘rilib, teranlashib borgan. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarish ularda ham aks topa borgan.

Maqollar og‘zaki badiiy ijod va falsafa oralig‘ida turgan hodisa bo‘lib, ularda aytilgan hukmni hech kim inkor etolmaydi. Chunki bunday hukm, avvalo, asrlar davomida turmush tajribasida qayta-qayta sinalib tasdiqlangan, so‘ngra esa, xuddi shu xususiyati tufayli tarix hikmatiga aylanib tashviquy mohiyat kasb etgan. Shuning uchun maqollardagi fikrlar tinglovchilar tomonidan e’tirozsiz, hech bir qarshiliksiz va izohsiz qabul qilinishi odatiy holdir. Maqollar ma’no-mazmunini to‘la anglash va idrok etish uchun tinglovchi, avvalo, o‘scha maqolni yaratgan xalqning tarixini, dunyoqarashini, urf-odatlarini, diniy aqidalarini, o‘scha xalq yashayotgan yurtning jug‘rofiy muhitini, hayvonlar va o‘simliklar dunyosini, iqlim sharoitlarini puxta bilmog‘i lozim.

Maqollar shaklan ixcham bo‘lsalar-da, badiiyatiga ko‘ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo‘lib, tasirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o‘simgiliklar va hodisalar obrazlaridan g‘oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada timsoliy obrazlar vositasida hayotdagи ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan. Maqollarda badiiy til vositalari fikrni ixcham va obrazli ifodalashga, tinglovchi qalbida kechinmani tez uyg’otishga xizmat qiladi. Bu jihatdan maqollarda uchrovchi sinonimiya va antonimiya hodisalari e’tiborni tortadi. Maqollar orasida shakli boshqa bo‘lsa-da, mazmuni bir xil bo‘lib, sinonimik qatorlar hosil qiluvchi namunalar anchaginadir.

Tilning boyligi bo‘yoqdor leksikaning boyligi bilan o‘lchanadi. Xalqlar asrlar davomida yaratgan minglab ajoyib maqol va tez aytishlar og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib, zamonlar osha tobora sayqallanadi, mazmuni yanada ravshanlashadi.

Masalan, *G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.*

Oq choynakka oq qopqoq,

Ko ‘k choynakka ko ‘k qopqoq.

Til jamiyatning yuzini aks ettiradi. Chet tilini o‘rganish eng mashaqqatli ta’lim tizimidir. Til insonning fikri, qayg‘usi,xavotirini ifodalash bilan birga o‘sha tilga tegishli bo‘lgan jamiyatning madaniyatini ko‘rsatib beradi. Shunga qarab chet tili ta’limi deganda shu tilning o‘zigma emas o‘sha tili o‘rganilayotgan davlatning madaniyatini ham o‘rganishdir. Tilga bog‘liq bo‘lgan ta’limlar orasida eng muhimi maqollar bilan bir qatorda tez aytish deb aytishimiz mumkin.

Ispan izohli lug‘atga e’tibor beradigan bo‘lsak, tez aytish ispan tilida “*Traba lengua*” deyiladi.

Un raton reptó risueño hasta la romá de Reto lo Rano

El hipopotamo hipo este conhipo

Quien el quita el hipo al hipo patomo Hipo

Tez aytish barcha tillarda ham bir xil mohiyatni kasb etadi. Bunda asosiy e’tibor so‘zlovchi nutqining ravon bo‘lish uchun xizmat qiladi. Tez aytish o‘zbek tilida ham shu maqsadda ko‘p qo‘llaniladi. Bir-biriga o‘xshash va yaqin talaffuzzli so‘zlardan tuzilgan jumlalar takrori nutq ko‘nikmasini mukammal qilib shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuhamedov M., Qo‘shtonov M. O‘zbek xalq maqollari. -T.: Fan, 1981. 400 b.
2. Гирукский А.А. Введение в языкознание. М.: HayKa, 2003. - 335 с.
3. Концевич Р. Корееведение Избранное. - М.: HayKa, 2001. - 256 с.
4. Вопросы лексикологии и слово образования. М.: HayKa, 1960. - 240с.
5. Анорбоева С. А. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 337-348.

6. АНОРБОЕВА С. Формирование профессиональной компетентности переводчика //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 35-39.
7. ANORBOYEVA, S. (2023). “SHADOWING” METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH . Journal of Research and Innovation, 1(11), 3–6. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/807>
8. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.
9. АНОРБОЕВА, С., & ШОДИКУЛОВА, Ш. (2023). К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(3), 22–26. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/111>
10. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
11. Aborboyeva S. ON THE CONCEPT OF TRANSLATION COMPETENCE AS A MULTISPECTIVE THEORETICAL CONCEPT //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
12. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
13. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>